



MUSIQA O’QITUVCHISI – YUKSAK MA’NAVIYAT VA MADANIYAT SOHIBI BO’LMOG’I ZARUR

Muallif: Siddiqova Gulnoza Sharaviddinovna¹

Affiliatsiya: JDPU katta o’qituvchisi¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.1440888>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ta’lim sohasida olib borilayotgan ishlarni samarali va sifatli olib borishda musiqa o’qituvchilarining yuksak bilim, malaka va iqtidorlarini orttirish, o’qituvchining pedagogik faoliyatga ijodiy yondashuvi va ijtimoiy faolligiga o’z ta’sirini o’tkazish, metodik tayyorgarlikka asos bo’ladigan mi’yoriy bilim va maalaka majmuasi ko’rsatilgan.

Kalit so’zlar: yaxlitlik, vosita, metod, kontseptsiya, innovatsion, ritmik harakatlari.

Yangi O’zbekistonni yangicha boshqarish ijtimoiy va iqtisodiy sohalardan yangicha innovatsion g’oyalar ilgari surilayotgan bir paytda ta’lim sohasidagi yangiliklar va o’zgarishlar bugungi kun ta’lim sohasida faoliyat ko’rsatayotgan pedagog xodimlar oldiga ham talaygina vazifalar va o’z ustilarida tinimsiz ish olib borish masuliyatini yuklaydi. Ayniqsa madaniy sohada ish olib borayotgan ma’naviy ma’rifiy soha vakillari va musiqa o’qituvchilarini ilg’or va tezkorlik bilan o’sib kelayotgan yosh avlodga talab darajasidagi bilim va ko’nikmalarni berish uchun o’zlarini tayyorlashlari zarur.

Ma’lumki, g’oyaviy-siyosiy yetuklik ilmiy-metodik tayyorgarlikning tarkibiy qismi bo’lgan metodologik bilim, ko’nikma va malakalarga asos bo’lib xizmat qiladi. Ijtimoiy va ijodiy faoliyot o’qituvchining o’z kasbiy tayyorgarligini muntazam orttirishi, yuksak kasb-hunar madaniyatiga ega bo’lgan o’qituvchining pedagogik faoliyatga ijodiy yondashuvi va ijtimoiy faolligiga o’z ta’sirini ko’rsatadi.

Musiqa o’qituvchisining metodik tayyorgarligiga asos bo’ladigan me’yoriy hujjatlar bilim, ko’nikma va malakalar majmuasi:

- ta’lim-tarbiya jarayonining yaxlitligi, ta’lim mazmuni, vositalari, metodlari va shakllarining uzviyligini tasavvur qilishi;
- musiqa bo’yicha darsdan, sinfdan va muktabdan tashqari ta’lim-tarbiya ishlarning mazmuni, shakllari va mazkur mashg’ulotlarni tashkil qilish yo’llarini;
- umumiyl o’rtalik va o’rtalik maxsus, kasb-hunar ta’limi hamda oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini;
- yangi tahrirdagi davlat ta’lim standarti va o’quv dasturining amaldagi DTS va dasturdan farqini;
- umumiyl o’rtalik va o’rtalik maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida ilmiy-uslubiy, tajriba-sinov ishlarni olib borish tartib qoidalarini bilishni;



– umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'quvchilarni kasbga yo'llash ishlarining tartibi, maqsad va vazifalari haqida ma'lumotga ega bo'lishi, musiqa yo'nalishida kasbga yo'llash ishlarini olib borishni;

– musiqani chuqur o'zlashtirishga ixtisoslashgan maktab yoki sinflarda qo'llanilayotgan dastur, ta'limiy va tarbiyaviy ishlarning mazmun-mundarijasi, DTS, mazkur ta'lim tarbiya jarayonini tashkil etishga qo'yiladigan didaktik talablar, shakl va usullarini;

– musiqani o'qitish jarayonida o'quvchilar qalbi, ongiga milliy istiqlol g'oyasini singdirishning mazmuni, vositalari, metodlari va shakllarini;

– musiqani o'qitish jarayonida o'quvchilarni huquqiy, iqtisodiy, ekologik, sanitariya-gigienik tarbiyalashning mazmuni, metodlari va shakllarini bilishi va amaliyotga qo'llay olishni;

– zamaonaviy axborot kommunikatsion texnologiya vositalarni dars jarayonida qo'llay olish mahoratiga ega bo'lishi;

– musiqani o'qitish jarayonida o'quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, mustaqillik printsiplari va ona Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashning mazmuni, metodlari va shakllarini bilish va amaliyotga qo'llay olishni;

– musiqadan o'quv dasturi, DTS, darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalarni tahlil qilishni;

– musiqani o'qitish kontseptsiyasi, metodik yondashuvlar asosida o'quv jarayonini tashkil eta olishni;

– musiqa o'quv fanining asosiy g'oyalari, maqsadi va vazifalari, shuningdek, boblar, mavzularning maqsadi va vazifalarini aniqlay olishni; – musiqani o'qitishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llay olishni;

– o'quvchilar bilimini nazorat qilish va baholashning zamonaviy usullarini bilishi va olingen natijalarni tahlil qila olishi, baholash tizimini mukammal bilish va qo'llay olishni;

– musiqa darslariga qo'yiladigan didaktik talablardan xabardor bo'lishi, ularni kuzatish va tahlil qilish malakasini o'zlashtirishni;

– musiqa o'qituvchilarining ilg'or ish tajribalarini aniqlashi va ularni o'zlashtira olishi hamda amaliyotga qo'llash malakasiga ega bo'lishi;

– musiqa o'quv xonalari, laboratoriylarini namunaviy jihozlash, tegishli me'yoriy hujjalarni bilishi, jihoz, ko'rgazmali vosita, didaktik va tarqatma materiallarni tayyorlash, saqlash, butlash va boyitish yo'llarini bilishi, ulardan samarali foydalangan holda o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish tajribasiga ega bo'lishi lozim.

Dars samaradorligini oshirishda o'qituvchiga tayyorgarligi yaxshi bo'lgan o'quvchilarga va musiqa sohasida muvafaqqiyat qozongan iqtidorli sinflar uchun dastur talabini bir oz oshirish huquqi berish muhim ahamiyatga ega. Ayni vaqtida o'quvchilaraga yakka tartibda musiqa o'rgatish, tashkillashtirishga e'tibor berish, bu ishga ota-onalar jamoatchilagini ham jalb etish lozim. O'qitish davrida musiqa sohasida muntazam ravishda ish olib borilishi natijasida o'quvchilar musiqa savodiga ega bo'lib, musiqani sevadigan, yirik musiqa asarlarini, shuningdek, konsertlarni, radio va televide niye orqali beriladigan musiqali eshittirishlarni mehr qo'yib tinglaydigan, badiiy havaskorlik to'garaklarida yetarli tayyorgarlik bilan faol qatnashadigan kishilar bo'lib yetishadilar. Bu tadbirlarni amalga oshirishda sinf rahbarlari va ota-onalar musiqa o'qituvchisiga yaqindan yordam berishlari zarurdir. Hozirgi zamonaviy ta'lim tizimida

zamonaviy texnik vositalar: DVD, MP-3, televizor, kompyuterlardan foydalanib musiqiy darslarni tashkil etish, texnika yangiliklaridan hamda ijtimoiy fanlar pedagogika, xususiy mutaxasislik bo'yicha ilg'or texnologiyalar asosida darslarni olib borish ko'zda tutilgan.

Ma'lumki, bugungi kun ta'limi oldida qo'yilgan zamonaviy talablardan yana biri musiqa o'qituvchilarining kasbiy mahoratida psixologik bimdonligi, savodxonligi va madaniyatini o'zliksiz oshirib borishdan iboratdir. Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarning musiqiy faoliyatlarini tashkil etishda ya'ni jamoa bo'lib kuylashi, musiqa tinglashi, bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lishi va musiqiy ritmik xarakatlar bajarishida asosan yoshiga xos xususiyatlarini hisobga olish, rag'barlantirishning o'ziga xos psixologik mexanizimidan foydalanish, idrok etish qobiliyati, eshitish xotirasini mashq qildirish, fikrlash va ijodiy yondovushini yo'naltirish o'qituvchining darsni psixologik talablarga asosan tashkil etishiga ko'p jihatdan bog'lidir.

Musiqa madaniyati darslariga psixologik nuqtai nazar bilan qaraganda, darsning asosiy vazifasi va qator maqsadlarini samarali amalga oshirish musiqa o'qituvchisidan jismoniy, ijodiy mehnat, astoydil kuch-quvvat, his-tuyg'u va irodaviy zo'r berishni talab etadi. Amalyot shuni ko'rsatadiki, barcha musiqa o'qituvchilari ham mакtabda o'quv tarbiyaviy ishlarni, darslarning maqsad va vazifalarini bir xilda tushunmaydilar.

Aslida o'qituvchi o'z diqqatini o'quvchi shaxsining qabul qilish xususiyatlariga, diqqati faolligiga, darsning didaktik tomoniga, o'quvchining ma'lumotlilik darajasiga qoniqish doirasiga, musiqa o'qitishning usullarini va optimal metodlarini tanlashga va boshqalarga jalb qilmog'i muhimdir.

Yuksak kasb-hunar madaniyatiga ega bo'lgan mutaxassis sifatida o'zida ijtimoiy va ijodiy faollik, g'oyaviy-siyosi, ma'naviy-axloqiy yetuklikni mujassamlashtirsa, yuqori malakali raqobatbardosh pedagog sifatida respublikaning iqtisodiy tarmoqlarida malakali kadrlar tayyorlash ishida o'zining munosib hissasini qo'sha oladi. Pedagog kadrlarning ijtimoiy va ijodiy faolligi, g'oyaviy-siyosi, ma'naviy-axloqiy yetukligi o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi va ularning tarkibiy qismlariga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yuqori malakali raqobatbardosh pedagogik kadr bo'lgan musiqa o'qituvchisi, o'z navbatida, yuksak ma'naviyat va madaniyat sohibi, milliy istiqlol mafkurasi va g'oyalarini singdirgan shaxs sifatida, ta'lim-tarbiya jarayonidagi istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etish orqali jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shadi, hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola biladi. Musiqa o'qituvchisini tayyorlashda kasbiy tayyorgarlikning tarkibiy qismlari, yuqori malakali raqobatbardosh pedagogik kadr va shaxs sifatidagi xususiyatlarini yaxlit holda tasavvur qilib, ularning o'rta sidagi uzviylikni amalga oshirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. - T.: «O'qituvchi», 1992.

Актуальные проблемы возрастной и педагогической психологии.

Под.общ.ред. И.Иващенко и др. - МИНСК: «Высшая школа», 1980.

Barotov SH.R. O'quvchi shaxsini o'rganish usullari. - T.: «O'qituvchi», 1995. -86-b.

Jo'raev R. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishdagi umumiy o'rta ta'lim vazifalari. // «Pedagogik mahorat», 2001, 2-son-2-10-b.

Imomnazarov M.S., Eshmuhamedov M. Milliy ma'naviyatimiz asoslari. (Oliy o'quv yurtlar uchun ma'ruba matnlari) - T.: ToshIU, 2001.
Ismoilov N. Milliy mentalitetning tub ildizi. // «Muloqot», 2001,4-son. -29-b.

